



2026-YIL APREL HOLATIGA GLOBAL URAN BOZORI TENDENSIYALARI

VANADIUM

POTASH

Mining Inspectorate



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

Chorak yakunlari bo'yicha asosiy yangiliklar

Uran qazib olish sohasidagi xalqaro rivojlanish tendensiyalari

Uran bozoridagi tendensiyalar

Texnologik rivojlanish va innovatsiyalar

Strategik va iqtisodiy o'zgarishlar

Uran qazib olishning strategik ahamiyati

O'tgan chorak bo'yicha umumiy sharh

Axborot manbalari



URAN QAZIB OLIH SOHASIDAGI XALQARO RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

(ishlab chiqarish, geologik qidiruv va investitsiyalar)

2026-yilning dastlabki oylarida bir qator yirik uran loyihalari rejalashtirish bosqichidan amaliy bosqichga o'tdi, bu esa sohada investitsion faollik ortib borayotganini hamda kelgusidagi ta'minot istiqbollari uchun kuchayayotganini ko'rsatadi.

Xususan, Kanadada joylashgan dunyoning eng boy uran zaxiralariga ega hududlardan biri hisoblangan Atabaska havzasida Denison Mines kompaniyasi Wheeler River loyihasi doirasidagi Phoenix konini yer osti qazib olish (ISR) texnologiyasi asosida to'liq qurilishini tasdiqladi. Qurilish ishlari 2026-yil mart oyida boshlanishi rejalashtirilgan bo'lib, dastlabki tayyor mahsulotni 2028-yil o'rtalariga kelib ishlab chiqarish kutilmoqda.

Shu bilan birga, NexGen Energy kompaniyasi Saskachevan provinsiyasida joylashgan yirik Rook I konini qurishni boshlash uchun barcha zarur ruxsatnomalarni oldi. Mazkur loyiha tarkibidagi Arrow koni dastlabki bosqichlarda yiliga 30 million funtgacha U_3O_8 ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lib, bu uni Shimoliy Amerikadagi eng yirik uran qazib olish loyihasiga aylantirishi mumkin.

Mazkur loyihalar bo'yicha tegishli hukumat ruxsatnomalarining berilishi puxta va ko'p bosqichli litsenziyalash jarayonlari natijasi bo'lib, bu global miqyosda yangi uran ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirishga bo'lgan ishonch ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.



URAN QAZIB OLISH SOHASIDAGI XALQARO RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

(ishlab chiqarish, geologik qidiruv va investitsiyalar)

Yetakchi ishlab chiqaruvchilar ortib borayotgan talabni qondirish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini ehtiyotkorlik bilan oshirmoqda.

Qozog'istonning Kazatomprom kompaniyasi, jahon uran ta'minotining qariyb 38 foizini ta'minlovchi yetakchi ishlab chiqaruvchi sifatida, 2026-yilda ishlab chiqarishni 9 foizga oshirishni rejalashtirayotganini ma'lum qildi. Kompaniya yil yakuni bo'yicha 71,5–75,4 million funt U_3O_8 ishlab chiqarishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, "hajmdan ko'ra qiymat ustuvor" tamoyiliga amal qilishda davom etib, yetarli narx rag'batlari mavjud bo'lmaguncha to'liq ishlab chiqarish quvvatlariga tezkor qaytishni rejalashtirmayotganini ta'kidlamogda.

Shu bilan birga, Navoiyuran DK ham yuqori ishlab chiqarish natijalarini qayd etdi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, korxonada uran qazib olish rejasini sezilarli darajada ortig'i bilan bajardi va o'tgan yilga nisbatan 141,7 foizlik o'sishga erishdi. Ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan bir qatorda qayta ishlash quvvatlarining 35 foizga kengaytirilishi korxonaga rekord darajadagi eksport ko'rsatkichlariga erishish imkonini berdi.

Mazkur natijalar Markaziy Osiyodagi yirik ishlab chiqaruvchilar qulay bozor kon'yunkturasidan samarali foydalanib, ishlab chiqarishni tizimli va samarali ravishda kengaytirayotganini ko'rsatadi.



Uran qazib olish sohasidagi xalqaro rivojlanish tendensiyalari

(ishlab chiqarish, geologik qidiruv va investitsiyalar)

Uran konlarini qidirish va o'rganish yo'nalishidagi investitsiyalar global miqyosda izchil davom etmoqda.

O'zbekistonda Fransiyaning Orano Mining, Navoiyuran DK va Itochu kompaniyalari ishtirokida tashkil etilgan xalqaro qo'shma korxonada Janubiy Djongeldi uran konini o'zlashtirish loyihasini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Loyihaga ko'ra, yiliga taxminan 500 tonna uran (qariyb 1,3 million funt U_3O_8) ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, davom etayotgan geologik qidiruv ishlari hisobiga resurs bazasini kengaytirish salohiyati ham mavjud.

Kanadada esa yirik kompaniyalar bilan bir qatorda kichik korxonalar ham faol ravishda burg'ulash ishlarini olib bormoqda. Xususan, Atabaska havzasi va boshqa istiqbolli hududlarda amalga oshirilayotgan yangi dasturlar uranga boy (high-grade) yangi konlarni aniqlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, korporativ investitsion faollik ham soha istiqbollari bo'lgan ishonch ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, AQShda faoliyat yuritadigan Eagle Nuclear Energy Corp. kompaniyasi SPAC orqali qo'shilish jarayonini yakunlab, 2026-yil fevral oyida NASDAQ fond birjasida (NUCL tickeri ostida) savdolarini boshladi.

Kompaniyaning birjaga chiqishi hamda Uranium Producers of America assotsiatsiyasidagi ishtiroki uning Oregon va Nevada shtatlarida joylashgan yirik Aurora loyihasini rivojlantirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu G'arb bozorlarida uran loyihalariga nisbatan investorlar qiziqishi yuqori darajada ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.



Uran qazib olish sohasidagi xalqaro rivojlanish tendensiyalari

(ishlab chiqarish, geologik qidiruv va investitsiyalar)

Uran yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasida tuzilayotgan muhim bitimlar uzoq muddatli ta'minot zanjirlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Kanadaning Cameco kompaniyasi Hindistonning Atom energiyasi departamenti bilan 22 million funt U₃O₈ yetkazib berishni nazarda tutuvchi 9 yillik shartnoma imzoladi. Taxminan 2,6 milliard AQSh dollari qiymatiga ega bo'lgan ushbu bitim doirasida yetkazib berish ishlari 2027-yildan boshlanishi rejalashtirilgan.

Mazkur shartnoma avvalgi hamkorlikning davom ettirilishi va kengaytirilishi sifatida Nyu-Dehli shahrida yuqori darajadagi rasmiylar, jumladan Cameco bosh direktori Tim Gitzel va Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi ishtirokida e'tirof etildi.


Cameco kompaniyasining Prezidenti va Bosh ijrochi direktori Tim Gitselning ta'kidlashicha, ushbu kelishuv ortib borayotgan talab va cheklangan taklif sharoitida davlat darajasidagi xaridorlar tomonidan bir nechta yetkazib beruvchilardan yirik hajmdagi mahsulotni uzoq muddatga kafolatlash tendensiyasini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, davlatlararo memorandumlar shaklida ham aks etayotgan bunday xalqaro hamkorliklar uranning strategik savdo resursi sifatidagi ahamiyatini kuchaytiradi. Ular Kanada, Qozog'iston va O'zbekiston kabi ishlab chiqaruvchi davlatlarni Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda kengayib borayotgan atom reaktorlar parkini ta'minlovchi muhim hamkorlarga aylantirmoqda.



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

URAN NARXINING O'RTACHA OYLIK DARAJASI



NARXLARNING KESKIN O'SISHI VA BOZORNING QAYTA FAOLLASHUVI

2026-yil boshida uran narxlari keskin o'sishni namoyon etdi: yanvar oyida narxlar qariyb 25 foizga oshib, qisqa muddatga 100 AQSh dollari/funt darajasidan ham yuqoriga chiqdi. Oy yakuniga kelib spot narx 94,28 dollar/funtgacha, 2026-yil 31-mart holatiga esa 84,25 dollar/funtgacha biroz pasayish kuzatildi. Shu bilan birga, uzoq muddatli kontrakt narxlari mustahkamlanishda davom etib, mart oyi yakuniga kelib 91,50 dollar/funt darajasiga yetdi.

Aprel oyining dastlabki savdo kunlarida bozorda nisbiy barqarorlashuv kuzatildi: Numerco platformasi ma'lumotlariga ko'ra, U_3O_8 bo'yicha indikativ narx taxminan 85,00 dollar/funt atrofida shakllandi. Shu davrda uran qazib olish kompaniyalari aksiyalari ham o'sish dinamikasini namoyon etib, kengroq fond bozori ko'rsatkichlaridan yuqori natijalarni qayd etdi.

Sprot Asset Management ma'lumotlariga ko'ra, yanvar oyidagi narxlarning keskin oshishi investorlarning uran ta'minot zanjirining yuqori (upstream) bosqichiga bo'lgan qiziqishi qayta tiklanganini ko'rsatadi. Bu jarayon mustahkam fundamental omillar hamda qo'llab-quvvatlovchi siyosiy signallar bilan izohlanadi.

Shuningdek, Sprott Physical Uranium Trust fondi 2026-yil boshida 4 million funt U_3O_8 xarid qilib, o'z zaxiralarini qariyb 79 million funtgacha oshirgani qayd etildi. Moliyaviy xaridlar hajmining ortishi, spekulyativ kapital oqimlari va uzoq muddatli bozor segmentining mustahkamligi natijasida bozorda ijobiy kayfiyat saqlanib qoldi, hatto fevral–mart oylarida spot narxlar biroz pasayganiga qaramay.



URAN BOZORI TENDENSIYALARI

(narx dinamikasi, talab va taklif istiqbollari)

Taklif va talab o'rtasidagi barqaror nomutanosiblik uran bozorida o'sish tendensiyasini qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda. 2011-yildagi bozor inqirozidan keyingi uzoq muddatli investitsiya yetishmovchiligi natijasida ko'plab konlardagi ishlab chiqarish faoliyati to'xtatilgan yoki qisqartirilgan quvvatlarda faoliyat yuritmoqda.

Talab tiklangan bo'lsa-da, taklifning o'sish sur'atlari hali ham cheklanganligicha qolmoqda. So'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmlarining oshganiga qaramay, global ishlab chiqarish va ikkilamchi manbalar hajmi atom reaktorlarining ehtiyojlarini to'liq qoplay olmayapti, bu esa zaxiralarning qisqarishiga olib kelmoqda.

Jahonning yetakchi ishlab chiqaruvchisi — Kazatomprom — mavjud narx darajasi yangi yirik loyihalarni ishga tushirish uchun yetarli emasligini ta'kidladi. 2025-yil dekabr oyida Qozog'iston tomonidan geologik qidiruv va resurslarni boshqarish sohasidagi tegishli hukumat talablarining yanada kuchaytirilishi ushbu pozitsiyani mustahkamlab, uzoq muddatli taklif xavflariga e'tibor qaratdi.



NAVOIYURAN

State-owned Enterprise

URAN BOZORI TENDENSIYALARI

(narx dinamikasi, talab va taklif istiqbollari)

Energetika kompaniyalari tomonidan uzoq muddatli kontraktlar tuzish faolligi ketma-ket 13 yil davomida yetarli darajada bo'lmay kelmoqda. 2025-yilda uzoq muddatli shartnomalar orqali atigi 116 million funt U_3O_8 hajmida kelishuvlarga erishilgan bo'lib, bu yillik iste'molni qoplash uchun zarur bo'lgan taxminan 150 million funtdan ancha past ko'rsatkich hisoblanadi.

Natijada, vaqt o'tishi bilan kontraktlar bilan qoplanmagan talab hajmi sezilarli darajada to'planib bordi. Shu bilan birga, 2025-yilning to'rtinchi choragida keskin faollik kuzatilib, qariyb 72 million funt hajmida yangi shartnomalar tuzildi. Bu holat bozorning "quvib yetish" bosqichiga kirayotganini anglatadi.

Bozor tahlilchilari ushbu vaziyatni "siqilgan prujina" effekti sifatida baholamoqda — ya'ni kechiktirilgan xaridlar hajmi qisqa muddatda tez sur'atlarda faollashib, narxlarning yanada oshishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, bozor sharoitlari tobora keskinlashib borayotgan bir paytda energetika kompaniyalari kelajakdagi ta'minotni oldindan kafolatlashga intilmoqda.



ATOM ENERGETIKASINING TIKLANISHI VA ENERGETIK O'TISH

FONIDA TALABNING KENGAYISHI

Global uran talabi atom energetikasi strategiyalarining keng ko'lamda tiklanishi fonida yanada mustahkamlanmoqda. Davlatlar dekarbonizatsiya va energetik xavfsizlik maqsadlariga erishishga intilar ekan, atom energetikasi uzoq muddatli energetik rejalashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xalqaro energetika agentligi prognozlariga ko'ra, amaldagi ekologik majburiyatlari doirasida 2050-yilga borib global atom energetikasi quvvatlari qariyb uch baravar oshib, 950 GWe darajasiga yetishi mumkin (hozirgi taxminan 365 GWe darajasiga nisbatan). Bu esa uran iste'molining sezilarli darajada ortishini anglatadi.

Yaqin istiqbolda ham asosiy bozorlar yuqori ambitsiyali maqsadlarni belgilamoqda. AQSh hukumati 2050-yilgacha atom energetikasi quvvatlarini to'rt baravar oshirishni rejalashtirgan bo'lib, 2030-yilgacha kamida 10 ta yirik reaktor qurilishini boshlash ko'zda tutilgan. 24 ta faol reaktorga ega Hindiston 2047-yilgacha 100 GVt quvvatga erishishni maqsad qilgan bo'lib, bu yangi loyihalar portfeli hamda Cameco bilan tuzilgan uzoq muddatli uran ta'minoti shartnomalari bilan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Xitoy esa jadal rivojlanish bosqichida bo'lib, 2025-yil boshida qo'shimcha 10 ta reaktor qurilishini tasdiqladi hamda 2030-yilgacha 110 GVt, 2035-yilgacha esa 200 GVt quvvatga erishishni rejalashtirmoqda. Amaldagi sur'atlar saqlanib qolgan taqdirda, Xitoy ushbu o'n yillik yakuniga qadar dunyodagi eng yirik atom energetikasi bozoriga aylanishi va global uran savdo oqimlarini sezilarli darajada qayta shakllantirishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, yangi talab omillari ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilg'or reaktor texnologiyalari, modulli yechimlar hamda yangi qo'llanish yo'nalishlari — xususan, sun'iy intellektga asoslangan yuqori energiya talab qiluvchi ma'lumotlar markazlarini energiya bilan ta'minlash — kelgusida uran ta'minotiga qo'shimcha bosim yaratmoqda. Yirik texnologik kompaniyalar barqaror bazaviy yuklamani ta'minlash maqsadida maxsus atom energetikasi yechimlarini joriy etish imkoniyatlarini faol o'rganmoqda.

Umuman olganda, ushbu jarayonlar bozorning strukturaviy o'zgarish bosqichiga o'tayotganini ko'rsatadi. Natijada, uran xaridlari davlatlar va energiya ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tomonidan tobora strategik va uzoq muddatli yondashuv asosida ko'rib chiqilmoqda.



SAVDO HAJMLARI VA BOZOR TUZILMASI

Narxlarning o'lishi bilan bir qatorda, uran savdo hajmlari va bozor likvidligi ham barqaror va izchil sur'atlarda oshib bormoqda. Uzoq muddatli shartnomalar tuzish faolligining ortishi, investitsiya fondlari tomonidan spot bozordagi operatsiyalarning kengayishi hamda yangi moliyaviy ishtirokchilarning (jumladan, uran rentyasi modeli asosida faoliyat yurituvchi hamda aktivlarni boshqaruvchi kompaniyalar) kirib kelishi uran savdosining amaldagi mexanizmlarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

Uran qazib oluvchi kompaniyalar faoliyatini aks ettiruvchi sohaviy indekslar hamda birja fondlari (ETF) 2026-yil boshida sezilarli savdo hajmlarini qayd etdi. Bu, asosan, umumiy investorlar tomonidan kapitalning ushbu sektorga qayta yo'naltirilishi bilan izohlanadi, chunki ular mustahkam fundamental omillar uzoq muddatli o'lish siklini qo'llab-quvvatlashiga ishonch bildirmoqda.

Shu bilan birga, uran bozori umumiy qiymat jihatidan hali ham nisbatan kichik bo'lib qolmoqda — spot segment hajmi yiliga taxminan 3 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Bu holat bozorni yuqori darajadagi o'zgaruvchanlikka moyil qiladi.

Bozor ishtirokchilari kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan tarkibiy o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatmoqda. Jumladan, fyuchers savdolarining kengayishi yoki market-meykerlik institutlarining rivojlanishi narx shakllanishining shaffofligi va samaradorligini oshirishi mumkin.

Hozirgi vaqtda bozorda ijobiy kayfiyat ustunlik qilmoqda. Biroq ishlab chiqaruvchilarning xatti-harakatlaridagi kutilmagan o'zgarishlar (masalan, Kazatomprom tomonidan ishlab chiqarish hajmlarining rejalashtirilganidan yuqori oshirilishi) yoki makroiqtisodiy omillar bozorda qo'shimcha beqarorlik keltirib chiqarishi mumkin.

Umuman olganda, talab va taklif muvozanati keskinligicha qolmoqda. Ko'pchilik prognozlarga ko'ra, agar mazkur 10-yillik oxiriga qadar yangi yirik ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilmasa, bozorda sezilarli taqchillik saqlanib qolishi kutilmoqda.

URAN QAZIB OLIH SOHASIDAGI TEXNOLOGIK RIVOJLANISHLAR VA INNOVATSIYALAR

2026-yil boshida uran qazib olish va qayta ishlash sohasidagi texnologik taraqqiyotlar jadallashishda davom etib, operatsion samaradorlik hamda ekologik ko'rsatkichlarning sezilarli darajada yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Muhim bosqichlardan biri sifatida Kanadada yer osti eritib olish (ISR) texnologiyasining rasman tasdiqlanishi qayd etildi. Mazkur usul avval asosan Qozog'iston va Markaziy Osiyo hududlarida keng qo'llanilgan edi. 2026-yil fevral oyida Denison Mines kompaniyasi Saskachevan provinsiyasida joylashgan Phoenix ISR loyihasi uchun yakuniy ruxsatnomalarni qo'lga kiritdi. Bu Kanadada ushbu texnologiyaning birinchi bor joriy etilishi bo'lib, uning atrof-muhitga minimal ta'siri bilan ajralib turadi. ISR texnologiyasi zarur kimyoviy eritmalarni yer ostidagi uranga boy qatlamlar orqali aylantirishga asoslangan bo'lib, yer yuzasidagi ekologik buzilishlarni kamaytiradi va kapital xarajatlarni qisqartiradi.

Boshqa hududlarda ham ishlab chiqaruvchilar qayta ishlash samaradorligini oshirish ustida faol ishlamoqda. Paladin Energy kompaniyasi Namibiyadagi Langer Heinrich konini muvaffaqiyatli qayta ishga tushirgach, mavsumiy suv toshqinlari kabi operatsion qiyinchiliklarga qaramay, 88 foizlik uran ajratib olish ko'rsatkichiga erishganini ma'lum qildi.

Shu bilan birga, AQShdagi rivojlanish bosqichidagi loyihalarda ham ajratib olish samaradorligi 80 foizdan yuqori darajada ta'minlanib, kislota sarfi 70–90 kg/tonnagacha qisqartirildi. Bu xarajatlarni kamaytirish va ekologik boshqaruvni yaxshilash borasida muhim yutuq hisoblanadi.

Umuman olganda, metallurgik loyihalash va reagentlarni boshqarish sohasidagi innovatsiyalar ISR hamda uyumlab eritib olish texnologiyalarining raqobatbardoshligi, barqarorligi va turli geologik sharoitlarda qo'llanilish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirmoqda



RAQAMLI VA TAHLILYIY TEXNOLOGIYALAR

Raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlilini uran geologik qidiruvi hamda konchilik operatsiyalariga integratsiya qilish jarayoni jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Kompaniyalar ilg'or geologik modellashtirish dasturlari, sun'iy intellekt asosidagi ma'lumotlar tahlili va masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalanib, burg'ulash uchun istiqbolli nuqtalarni aniqroq va samaraliroq aniqlamoqda.

Masalan, AQShdagi ayrim loyihalarda o'nlab yillar davomida to'plangan tarixiy burg'ulash ma'lumotlari raqamlashtirilib, resurs modellari takomillashtirilmoqda hamda loyiha hududiga tutash bo'lgan konlarning kengayish salohiyati aniqlanmoqda.

Mashinali o'rganish algoritmlari geofizik va geokimyoviy ma'lumotlar massivlarini chuqur tahlil qilib, uran mineralizatsiyasiga xos anomaliyalarni aniqlash imkonini bermoqda. Bu esa yangi konlarni aniqlash jarayonini tezlashtirib, geologik tavakkalchiliklarni kamaytiradi.

Shu bilan birga, avtomatlashtirish texnologiyalari ham keng joriy etilmoqda: murakkab sharoitlarda ishlovchi avtonom yoki masofadan boshqariladigan burg'ulash qurilmalaridan tortib, ISR quduq maydonlarini real vaqt rejimida monitoring qiluvchi sensor tarmoqlarigacha. Ushbu tizimlar bosim va oqim ko'rsatkichlarini optimallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Texnologiyalarga asoslangan bunday yondashuvlar loyiha amalga oshirish muddatlarini qisqartirish va operatsion xarajatlarni kamaytirishga imkon berishi kutilmoqda. Tarmoq tahlilchilarining fikricha, sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirish kelajakda qazib olish sikllarini sezilarli darajada qisqartirib, ishlab chiqarish hajmini oshirish va sanoat xavfsizligini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni keng joriy etish jarayoni hali dastlabki bosqichda ekanligi qayd etilmoqda.



YADRO YOQILG'ISI TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING URAN QAZIB OLIISH SOHASI BILAN BOG'LIQLIGI

Yadro yoqilg'isi siklining keyingi bosqichlaridagi rivojlanishlar ham uran qazib olish sohasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Buning yaqqol misollaridan biri ilg'or reaktorlarni yoqilg'i bilan ta'minlash uchun yuqori konsentratsiyali past boyitilgan uran (HALEU) ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan tashabbuslardir.

2026-yil yanvar oyida U.S. Department of Energy tomonidan HALEU va an'anaviy past boyitilgan uran ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish maqsadida 2,7 milliard AQSh dollari miqdorida shartnomalar ajratildi. Xususan, Centrus Energy kompaniyasi Ogayo shtatidagi boyitish majmuasini kengaytirish uchun 900 million dollarlik shartnomani qo'lga kiritdi. Ushbu majmua kelgusida yangi avlod reaktorlari uchun HALEU hamda tijorat reaktorlari uchun an'anaviy yoqilg'i ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Mazkur investitsiyalar bevosita qazib olish bilan bog'liq bo'lmasa-da, uran uchun yoqilg'i siklining keyingi bosqichlarida yanada barqaror bozor shakllanishiga xizmat qiladi hamda ishlab chiqaruvchilarni boyitish jarayoni uchun zarur bo'lgan xomashyo — jumladan, uran geksaftoridi ishlab chiqarishni kengaytirishga rag'batlantirishi mumkin.

Bundan tashqari, kichik modulli reaktorlar (SMR) kabi yangi texnologiyalar amaliy bosqichga yaqinlashmoqda. AQShda NuScale Power tomonidan ishlab chiqilgan ilk SMR loyihasi sertifikatdan o'tib, joriy etish bosqichiga o'tmoqda. SMR va boshqa innovatsion reaktorlar (masalan, yuqori haroratli gaz bilan sovutiladigan reaktorlar) qurilishi boshlanishi bilan ularning o'ziga xos yoqilg'i talablari (jumladan, HALEU va boshqa maxsus yoqilg'i shakllari) uran qazib olish sohasiga ham ta'sir ko'rsatib, ayrim izotop tarkiblariga yoki konversiya xizmatlariga bo'lgan talabni oshirishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarning ilg'or yo'nalishlarida esa mutaxassislar dengiz suvidan uran ajratib olish kabi innovatsion usullarni ham o'rganmoqda. Hozircha tijorat jihatdan keng qo'llashdan yiroq bo'lsa-da, yangi materiallar dengiz suvidagi past konsentratsiyadagi uranni samarali adsorbsiya qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilagan.

Agar kelgusida bunday texnologiyalar sanoat miqyosida joriy etilsa, ular deyarli cheklanmagan ikkilamchi manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Biroq yaqin istiqbolda an'anaviy qazib olish va qayta ishlash uran ishlab chiqarish sanoatining asosiy texnologiyasi bo'lib qoladi. Shunga qaramay, turli xil qazib olish texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan izlanishlar uranning strategik ahamiyatini va uni innovatsiyalar orqali ta'minlashga bo'lgan intilishni yaqqol namoyon etadi.



URAN SOHASIGA TA'SIR KO'RSATAYOTGAN STRATEGIK VA IQTISODIY O'ZGARISHLAR

Uranning energetik xavfsizlik va toza energiya tizimidagi hal qiluvchi o'рни ko'plab davlatlar tomonidan muhim siyosiy choralar ko'rilishiga sabab bo'lmoqda.

AQShda 2026-yil yanvar oyida Oq uy "Section 232" qonunchiligi doirasida maxsus proklamatsiya qabul qilib, uranni milliy xavfsizlik nuqtayi nazaridan strategik resurs sifatida rasman e'tirof etdi. Mazkur qaror AQShda uran ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator choralarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Jumladan, import kvotalari yoki bojlar joriy etilishi, narxlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (masalan, minimal narx darajasini belgilash), shuningdek, ichki konlarga to'g'ridan to'g'ri federal investitsiyalar yo'naltirilishi mumkin.

Ushbu siyosatning asosiy sababi AQSh atom energetikasi sektorining import qilinadigan yoqilg'iga yuqori darajada qaramligidir. Hozirda AQSh reaktorlarida foydalanilayotgan uranning qariyb 95 foizi import hisobidan ta'minlanadi. Geosiyosiy keskinlik va ta'minot zanjirlaridagi zaifliklar fonida AQSh siyosatchilari mamlakat ichida barqaror uran ta'minotini shakllantirish endilikda milliy xavfsizlik masalasi ekanini ochiq ko'rsatib berdi.

"Section 232" qonun loyihasi doirasidagi yondashuv amaliy choralarni ham nazarda tutishi mumkin. Xususan, strategik uran zaxirasini shakllantirish maqsadida davlat tomonidan uran xarid qilinishi yoki barqaror narxlarda kafolatlangan xaridlar evaziga uran kompaniyalarining ustav kapitalida davlat ulushi shakllantirilishi ehtimoldan xoli emas.

Umuman olganda, bu jarayon hukumatlar tomonidan uran kabi strategik mineral resurslar va yoqilg'i turlariga nisbatan ustuvor yondashuv kuchayib borayotganining bir qismidir.

XALQARO HAMKORLIK VA SAVDO ALOQALARI

Yadro energetikasi sohasida strategik hamkorlik davlatlar o'rtasida izchil mustahkamlanib bormoqda. Yuqorida qayd etilganidek, Kanada va Hindiston o'rtasidagi uzoq muddatli uran ta'minoti shartnomasi yoqilg'i yetkazib berishni kafolatlashga qaratilgan ittifoqlarning shakllanayotganini yaqqol namoyon etadi.

Xuddi shuningdek, dunyodagi eng yirik uran eksportchilaridan biri bo'lgan Qozog'iston ham iste'molchi mamlakatlar bilan hamkorlikda o'z mijozlar bazasi va logistika yo'nalishlarini diversifikatsiya qilmoqda. 2025-yilga kelib Kazatomprom o'z mahsulot ta'minotining asosiy qismini Rossiya orqali emas, balki Transkaspiy yo'nalishiga (Kaspiy dengizi, Ozarbayjon va Gruziya orqali) o'tkazdi. Natijada G'arb bozorlariga yetkazib berilayotgan uranning qariyb 70 foizi ushbu yo'nalish orqali amalga oshirilib, Rossiya tranzitiga bog'liqlik sezilarli darajada kamaytirildi.

Mazkur logistika qayta yo'naltirilishi Kaspiy portlarida chuqurlashtirish ishlari kabi infratuzilmaviy investitsiyalar bilan qo'llab-quvvatlanib, muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu orqali G'arb davlatlari energiya ishlab chiqaruvchi kompaniyalari geosiyosiy keskinliklarga qaramay Qozog'iston uranini barqaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda, Qozog'iston esa o'z eksport bozorlariga kirishni mustahkamlab bormoqda.

Afrika yo'nalishida esa 2023-yilda Nigerda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar dastlab uran ta'minoti barqarorligiga nisbatan xavotirlarni kuchaytirdi, chunki ushbu mamlakat Yevropa uchun muhim yetkazib beruvchilardan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, asosiy konlarda ishlab chiqarish vaqtinchalik kelishuvlar asosida davom ettirildi. Mazkur vaziyat Yevropa mamlakatlarining ta'minotdagi zaifliklarini ochib berib, Yevropa Ittifoqi doirasida yadro yoqilg'isi zaxiralarini shakllantirish hamda muqobil yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish jarayonlarini tezlashtirdi. Jumladan, Namibiya, O'zbekiston va Avstraliyadan import hajmlarini oshirish bo'yicha choralar ko'rilmoqda.

Yaqin Sharq mintaqasida esa 2025-yil oxirida AQSh va Saudiya Arabistoni o'rtasida atom energetikasi sohasida hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishildi. Ushbu kelishuv Saudiya Arabistonida atom energetikasini rivojlantirish va kelgusida uran xarid qilish bo'yicha yangi bitimlar tuzilishi uchun asos yaratishi mumkin.

Umuman olganda, ushbu jarayonlar geosiyosiy omillar va savdo aloqalari global uran oqimlariga tobora bevosita ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Davlatlar o'z energetika dasturlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'minot zanjirlarini faol ravishda mustahkamlab bormoqda.



IQTISODIY TENDENSIYALAR VA KORPORATIV STRATEGIYALAR

Qulay bozor sharoitlari uran sanoatida korporativ strategiyalar hamda qo‘shilish va qo‘lga kiritish (M&A) jarayonlariga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Uran narxlarining oshishi va ijobiy prognozlar loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yaxshilamoqda. Masalan, NexGen Energy kompaniyasining Rook I loyihasi uran narxi 95 AQSh dollari/funt darajasida hisoblanganda 6,3 milliard Kanada dollari miqdorida sof joriy qiymatga (NPV) ega bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa bunday yirik loyihalarni moliyalashtirishni yanada jozibador qiladi.

Kompaniyalar mavjud vaziyatdan faol foydalanib, kapital jalb etish, vaqtincha to‘xtatilgan ishlab chiqarish quvvatlarini qayta ishga tushirish hamda strategik hamkorliklarni rivojlantirishga intilmoqda. Xususan, kichik konchilik kompaniyalari investorlar qiziqishidan foydalanib aksiyalar chiqarish orqali mablag‘ jalb etmoqda, yirik kompaniyalar esa o‘z loyihalar portfelini kengaytirish maqsadida rivojlangan bosqichdagi aktivlarni sotib olish imkoniyatlarini ko‘rib chiqmoqda.

Narxlarning o‘shish tendensiyasi davom etgan taqdirda, sohada qo‘shimcha konsolidatsiya jarayonlari yuz berishi ehtimoli yuqori. Bunda yetakchi ishlab chiqaruvchilar tezkor ravishda ishlab chiqarish hajmlarini oshirish maqsadida ruxsatnomalarga ega kichik kompaniyalarni qo‘lga kiritishga intilishi mumkin.

Shu bilan birga, vertikal integratsiya jarayoni ham tobora kuchaymoqda. Yadro yoqilg‘isi siklining keyingi bosqichlarida faoliyat yurituvchi kompaniyalar (jumladan, boyitish korxonalarini va reaktor ishlab chiqaruvchilar) qazib olish aktivlariga investitsiya kiritmoqda. Aksincha, ayrim konchilik kompaniyalari esa ta‘minot zanjiridagi o‘z o‘rnini mustahkamlash maqsadida konversiya yoki yoqilg‘i ishlab chiqarish segmentlariga kirib borishni ko‘rib chiqmoqda.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan vertikal integratsiyaga misol sifatida AQShda yangi yirik AP1000 modelidagi reaktorlarni qurish uchun 80 milliard AQSh dollari miqdoridagi federal investitsiya dasturi hamda boyitish quvvatlarini kengaytirish uchun ajratilgan 2,7 milliard dollar mablag‘ni keltirish mumkin. Mazkur siyosat choralarining maqsadi — qazib olishdan tortib elektr energiyasi ishlab chiqarishgacha bo‘lgan butun qiymat zanjirini milliy darajada mustahkamlashdir.

Umuman olganda, sanoat va hukumatlar tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu strategik qadamlar uranning energetika siyosati va milliy manfaatlar kesishgan nuqtadagi o‘ziga xos iqtisodiy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.



SOHANI TARTIBGA SOLISH VA TEGISHLI INFRATUZILMA RIVOJLANISHIDAGI YANGILANISHLAR

Uran sanoatining o'sishini qo'llab-quvvatlash maqsadida tartibga solish tizimlari va infratuzilma rivoji moslashuvchan tarzda takomillashmoqda. AQShda so'nggi siyosiy o'zgarishlar yadro yoqilg'isi siklining muhim obyektlari uchun litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan bo'lib, yangi uran konversiyasi va boyitish zavodlarini qurish hamda ruxsat berish tartiblarini yengillashtirdi. Ushbu yondashuv yadro yoqilg'isi ta'minot zanjirida quvvatlarni kengaytirish muddatlarini qisqartirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, konchilik faoliyati olib borilayotgan hududlarda ekologiya va sanoat xavfsizligi bo'yicha regulyatorlar yangi loyihalar bo'yicha ruxsat berish jarayonlarini davom ettirmoqda. Xususan, Canadian Nuclear Safety Commission tomonidan 2026-yil mart oyi boshida Rook I loyihasi uchun ekologik baholash va qurilish litsenziyasining puxta, ammo o'z vaqtida tasdiqlanishi qat'iy standartlar va samarali qaror qabul qilish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning yorqin namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Infratuzilma yo'nalishida investitsiyalar qayta ishlash korxonalarini, transport yo'laklari, shuningdek, uzoq hududlardagi konlarni qo'llab-quvvatlovchi energiya va suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Masalan, O'zbekistonda yangi Janubiy Djongeldi loyihasining Navoiyuran DK mavjud infratuzilmasiga integratsiya qilinishi takroriy obyektlar qurilishiga bo'lgan ehtiyojni kamaytirib, qo'shimcha ekologik yuklamani minimallashtirishi kutilmoqda.

Ko'plab ishlab chiqaruvchilar operatsion xarajatlarni kamaytirish va barqarorlikka sodiqligini namoyon etish maqsadida ishlab chiqarish maydonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (jumladan, quyosh elektr stansiyalariga) investitsiya kiritmoqda.

2026-yilning dastlabki oylarida yirik ekologik hodisalar qayd etilmagan bo'lsa-da, soha doimiy ravishda asosiy xavf omillariga e'tibor qaratmoqda. Jumladan, ISR texnologiyasida yer osti suvlarini muhofaza qilish hamda an'anaviy qazib olish usullarida texnogen chiqindi omborlarini boshqarish masalalari regulyatorlar va kompaniyalar uchun ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, 2026-yil boshidagi tartibga solish muhiti yuqori darajadagi sanoat va ekologik xavfsizlik talablariga rioya etilgan taqdirda uran sanoatini rivojlantirishni tobora ko'proq qo'llab-quvvatlayotganini ko'rsatmoqda.



URAN QAZIB OLISHNING ORTIB BORAYOTGAN STRATEGIK AHAMIYATI: ATOM ENERGETIKASINING KENGAYISHI, ENERGETIK XAVFSIZLIK VA DEKARBONIZATSIYA

Ushbu jarayonlar uran qazib olish sanoati nega global miqyosda tobora strategik ahamiyat kasb etayotganini yaqqol ko'rsatadi. Aslida, uran atom energetikasi uchun muqobilisiz yoqilg'i hisoblanadi, atom energetikasi esa davlatlar ishonchli energiya ta'minoti, iqlim maqsadlariga erishish va milliy xavfsizlikni mustahkamlashga intilayotgan bir sharoitda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu omillar uyg'unligi natijasida uran oddiy xomashyo tovaridan strategik resurs darajasiga ko'tarildi.

Atom energetikasining kengayishi va dekarbonizatsiya: Xalqaro iqlim maqsadlariga erishish (jumladan, Paris Agreement hamda milliy darajadagi "net-zero" majburiyatlari) hukumatlarni past uglerodli energiya manbasi sifatida atom energetikasi quvvatlarini kengaytirishga undamoqda. Atom elektr stansiyalari uzluksiz bazaviy elektr energiyasi ishlab chiqaradi va to'g'ridan-to'g'ri CO₂ chiqindilarini hosil qilmaydi, bu esa ularni energiya tizimlarini dekarbonizatsiya qilishda muhim vositaga aylantiradi.

Mutaxassislar fikricha, asr o'rtalariga mo'ljallangan iqlim maqsadlariga erishish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan bir qatorda atom energetikasini ham sezilarli darajada kengaytirish zarur. Xalqaro energetika agentligi prognozlariga ko'ra, iqlim majburiyatlari doirasida 2050-yilga kelib global atom energetikasi quvvatlari 950 GWe darajasiga yetishi mumkin, bu esa bugungi ko'rsatkichdan deyarli uch baravar yuqoridir.

Har bir yangi 1 GVt quvvatga ega atom reaktori o'zining butun ekspluatatsiya davri davomida katta hajmdagi uranga ehtiyoj tug'diradi — odatda yiliga taxminan 500–600 ming funt U₃O₈. Shu sababli, atom reaktorlarining kengayishi bevosita uran qazib olish hajmlarining ortishini talab qiladi.

Bundan tashqari, atom energetikasi qazilma yoqilg'ilarni siqib chiqarish orqali issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi. Masalan, faqatgina Xitoyda 2024-yilda atom energetikasi hisobiga taxminan 334 million tonna CO₂ chiqindilarining oldi olingan.

Davlatlar uzoq muddatli dekarbonizatsiya strategiyalarini faol joriy etar ekan, uran ta'minoti xavfsizligi ularning iqlim siyosati bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, barqaror va ishonchli uran ta'minotisiz atom energetikasiga asoslangan toza energiya kelajagini ta'minlash qiyinlashadi.



URAN QAZIB OLIHNING ORTIB BORAYOTGAN STRATEGIK AHAMIYATI: ATOM ENERGETIKASINING KENGAYISHI, ENERGETIK XAVFSIZLIK VA DEKARBONIZATSIYA

Uran qazib olish sanoati energetik xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Soʻnggi yillardagi voqealar — xususan, tabiiy gaz taʼminotiga taʼsir koʻrsatgan geosiyosiy mojarolar hamda global yoqilgʻi narxlarining yuqori oʻzgaruvchanligi — davlatlarga ishonchli va ichki energiya manbalarining ahamiyatini yana bir bor eslatdi.

Atom energetikasi bir marta ishga tushirilgach, oʻnlab yillar davomida barqaror elektr energiyasi ishlab chiqarishni taʼminlaydi va yoqilgʻi narxlarining keskin oʻzgarishlariga nisbatan kamroq bogʻliq boʻladi (chunki uran yoqilgʻisi umumiy operatsion xarajatlarda kichik ulushni tashkil etadi). Biroq, agar uran import qilinadigan boʻlsa (koʻplab atom energetikasiga ega davlatlarda kuzatilganidek), taʼminot uzilishlari yoki tashqi bogʻliqlik muammoga aylanishi mumkin.

Aynan shu sababli AQSh kabi davlatlar uranni milliy xavfsizlik nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega mineral resurs sifatida tasniflamoqda. Yetkazib beruvchilarning cheklangan doirasiga haddan tashqari bogʻliqlikni kamaytirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Jumladan, Gʻarb davlatlari Rossiyaning yadro yoqilgʻisi siklidagi ulushini hisobga olgan holda (Rossiya global boyitish quvvatlarining muhim qismini egallaydi va koʻplab bozorlarga yetkazib beradi) ushbu mamlakatdan xaridlarni qisqartirishga intilmoqda.

Yevropada ham siyosatchilar mahalliy uran ishlab chiqarishni rivojlantirish (imkoniyat mavjud boʻlgan joylarda) va importni diversifikatsiya qilishni energetik xavfsizlik strategiyasining muhim elementi sifatida koʻrmoqda. Yevropa Ittifoqi rahbariyati atom energetikasidan voz kechish siyosatining ayrim jihatlarini qayta koʻrib chiqmoqda. Xususan, Yevropa Komissiyasi prezidenti Ursula von der Leyen ilgari atom energetikasiga qarshi yoʻnalish “strategik xato” boʻlganini taʼkidlagan.

Atom energetikasiga qayta eʼtibor qaratilishi uran ishlab chiqaruvchi davlatlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Kanada, Avstraliya, Qozogʻiston, Namibiya va Oʻzbekiston kabi mamlakatlar energetik xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha muhim hamkorlar sifatida tobora koʻproq eʼtibor markaziga tushmoqda.

Oʻz navbatida, ushbu davlatlar oʻzlarining resurs salohiyati ortida turgan iqtisodiy va strategik imkoniyatlarni tobora chuqurroq anglamoqda. Bu esa kelgusida ularning geosiyosiy taʼsirini kuchaytirish yoki xalqaro savdo shartlarini yanada qulayroq shakllantirish imkoniyatlarini yuzaga keltirishi mumkin.



URAN QAZIB OLISHNING ORTIB BORAYOTGAN STRATEGIK AHAMIYATI:

ATOM ENERGETIKASINING KENGAYISHI, ENERGETIK XAVFSIZLIK VA DEKARBONIZATSIYA

Qayd etilgan omillar natijasida ayrim tahlilchilar global miqyosda yangi “uran uchun raqobat” shakllanayotganini ta’kidlashmoqda. Hukumat va xususiy sektor subyektlari butun dunyo bo‘ylab uran aktivlari hamda uzoq muddatli ta’minot shartnomalarini qo‘lga kiritish uchun faol raqobat olib bormoqda.

Mazkur jarayon suveren jamg‘armalar, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan konsorsiumlar hamda energiya ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tomonidan konchilik loyihalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritish yoki ko‘p yillik offtake shartnomalarini imzolash orqali yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur tendensiya geologik qidiruv faoliyatida ham kuzatilmoqda. Muqaddam uranni to‘liq import qilgan ayrim davlatlar endilikda ichki resurslarni aniqlashga kirishgan. Masalan, Hindistonning davlat korxonalarini yangi konlarni aniqlash bo‘yicha qidiruv ishlarini kengaytirayotgan bo‘lsa, Saudiya Arabistoni ham uran qidiruv faoliyatini sezilarli darajada faollashtirmoqda.

Uraning strategik ahamiyati hukumatlarning ushbu sohani moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga tayyorligi bilan ham tasdiqlanmoqda. AQShda “Section 232” qonun loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan choralar bilan bir qatorda, Fransiyaning konversiya quvvatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan davlat investitsiyalari, Xitoyning Afrikadagi uran loyihalarini qo‘shma korxonalar orqali qo‘llab-quvvatlashi hamda Yaponiyaning Markaziy Osiyo va Kanadadagi loyihalarni moliyalashtirishi bunga misol bo‘la oladi.

Umuman olganda, ushbu raqobat nisbatan bozor tamoyillariga asoslangan holda kechayotgan bo‘lsa-da, u uran resurslari ustidan nazorat masalasi endilikda faqat tijoriy emas, balki strategik nuqtayi nazardan ham ko‘rib chiqilayotganini yaqqol namoyon etadi.



URAN QAZIB OLISH — XXI ASR ENERGETIKA IQTISODIYOTINING TAYANCH USTUNI


2026-yilning yanvar–fevral oylarida uran qazib olish sanoati nega XXI asr energetika iqtisodiyotining muhim tayanchlaridan biri sifatida qaralayotganini yana bir bor namoyon etdi. Narxlarning oshishi va ishlab chiqarish hajmlarining tiklanishi ishlab chiqaruvchilar uchun ijobiy signal bo‘lishi bilan birga, uzoq investitsion sikllarga ega bo‘lgan ushbu bozor segmentida talab va taklif muvozanatini ta‘minlash qanchalik murakkab ekanini ham eslatib o‘tadi.

Texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish jarayonlarini yanada xavfsiz va samarali qilishga xizmat qilmoqda, ayni paytda global miqyosda atom reaktorlarining qayta kengayishi fonida talabning keskin oshishi kutilmoqda. Davlat siyosati, xalqaro kelishuvlar va korporativ tashabbuslar ko‘rinishidagi strategik o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, uran oddiy xomashyo emas, balki toza energiya va milliy xavfsizlik manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan strategik resurs hisoblanadi.

Navoiyuran DK hamda boshqa yetakchi ishlab chiqaruvchilar uchun bu keng imkoniyatlarga ega, biroq yuqori raqobatli va tez o‘zgaruvchan muhitda faoliyat yuritishni anglatadi. Ishonchli, mas‘uliyatli va barqaror tarzda uran yetkazib bera oladigan kompaniyalar atom energetikasining kengayishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi hamda global energetik xavfsizlik va iqlim maqsadlariga erishishga bevosita hissa qo‘shadi.

2026-yilning dastlabki ikki oyi ushbu tendensiyalarni yanada mustahkamlab, uran sanoati rivojlanishining navbatdagi muhim bosqichi uchun zamin yaratdi.

Mazkur tahliliy dayjestda keltirilgan ma‘lumotlar ochiq manbalarga asoslangan bo‘lib, ular qatoriga press-relizlar, sohaviy hisobotlar, bozor tahlillari, xalqaro tashkilotlar — jumladan, Xalqaro energetika agentligi (IEA), UxC, WMC Energy nashrlari, kompaniyalar moliyaviy hisobotlari hamda davlat boshqaruv organlarining rasmiy bayonotlari kiradi. Ma‘lumotlarning aniqligini ta‘minlash bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘rilgan bo‘lsa-da, Navoiyuran DK tashqi manbalardan olingan axborotlarning to‘liqligi va mutlaq aniqligini kafolatlamaydi hamda zarurat tug‘ilganda foydalanuvchilarga birlamchi manbalarga tayanishni tavsiya etadi.



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise